

## GLOBAL O'ZGARISHLAR VA RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA XALQARO LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14261899>

**Imomaliyev Sherzod Mahmudovich**

*O'zbekiston Mudofaasiga ko'maklashuvchi Vatanparvar tashkiloti*

*Farg'ona viloyat Kengashi tasarrufidagi Dang'ara tuman O'STK.*

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi*

*Biznes va Tadbirkorlik Oliy maktabi 4-guruh tinglovchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, O'zbekistonning logistika samaradorligi indeksidagi o'rni, logistika samaradorligi indeksi ko'rsatkichlarining so'nggi yillardagi holati tahlil etilgan, shuningdek, logistika samaradorligi indeksi bo'yicha O'zbekistonning o'rnini yaxshilash yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** logistika samaradorligi indeksi, logistika ko'rsatkichlari, bojxona nazorati samaradorligi, transport infratuzilmasi, logistika xizmatlari, sifat, o'z vaqtida yetkazib berish, transport koridori, eksport, import.

### **KIRISH.**

O'zbekiston Respublikasining prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida bu masalaga alohida to'xtalib o'tdi: Bugungi kunda "transport-logistika tizimini takomillashtirish ham eng dolzarb masaladir. Chunki dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda" [1] - deb ta'kidlab o'tgan edi. Respublika transport salohiyatini rivojlantirishda va eksport imkoniyatlarini kengaytirishda, respublikaning geografik joylashuvini hisobga olgan holda zamonaviy avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda birinchi darajali vazifalardan hisoblanadi. O'tgan yillar davomida xalqaro standartlarga muvofiq yo'l-transport infratuzilmasini yaxshilash, zamonaviy avtomobil yo'llarini qurish, yo'l harakati qulayligi va xavfsizligini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Logistika ta'minot zanjirining boshidan oxirigacha axborot oqimlari bilan bog'liq bo'lgan tovarlarning birlashishi va saqlanishini anglatadi. Logistikada juda ko'p asoslar mavjud, masalan, tovarlar, materiallarni boshqarish, qayta ishlash strategiyasi rejasi va shunga o'xshash ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qidirish, ishonchli va iqtisodiy jihatdan foydali transport tizimi integratsiyalashgan logistika. Raqamli logistika - bu raqamlashtirilgan va globallashtirilgan bozorda

ta'minot zanjiri operatsiyalarini optimallashtirish uchun texnologiya, ma'lumotlar tahlili va innovatsiyalarning konvergentsiyasi. Bugungi savdo landshaftida tezlik, samaradorlik va shaffoflik talablarini qondirish uchun korxonalar raqamli logistikani qabul qilishlari kerak.

Raqamli logistika intellektual boshqaruv tizimlarini, transportning barcha bosqichlarida yuklarni kuzatishni, uchuvchisiz texnologiyalarni, hujjat aylanishini to'liq avtomatlashtirishni (shu jumladan elektron tovarlar va transport hujjatlarini) va transchegaraviy tashishda tezkor bo'xona rasmiylashtiruvini o'z ichiga oladi. Aslini olganda, u logistika jarayonida ilgari qog'oz va qalam bilan bog'liq bo'lgan narsalarni modernizatsiya qiladi.

Logistika sektorini boshqarishda raqamli va aqlli axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'plab foydali xususiyatlarni keltirib chiqarishi haqiqatdir. Masalan, axborot texnologiyalaridan faol foydalanish, yangi buyurtmalarni qabul qilish, shuningdek, tovarlarni yetkazib berish va tashish jarayoni, omborlarni boshqarish va avtotransport vositalari parki, ta'minot zanjiri munosabatlari sezilarli darajada tezlashdi. Ushbu jarayonlar tezligini oshirish natijasida buyurtmani bajarish muddati mijoz nuqtai nazaridan qisqaradi, qog'oz hujjat aylanishining qisqarishi inson omilining rolini pasaytiradi, bu esa moddiy xarajatlarni kamaytirishga olib keladi. Bundan tashqari, raqamlashtirishda o'z ifodasini topgan ilmiy kashfiyotlar resurslar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, biznesning o'sish salohiyatini, xo'jalik yurituvchi subyektlar, yangi bozorlar va tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini ta'minlaydi.

So'nggi paytlarda jahon iqtisodiyoti, albatta, sezilarli darajada o'zgardi. Globallashuv yangi logistikani "raqamli logistika"ga o'zgartirayotgani tobora oydinlashib bormoqda. Globallashuv nafaqat yangi bozorlar bilan bog'lanish imkoniyatlarini yaratdi, balki ushbu mijozlarning ishonchini qozonish uchun kurashayotgan nufuzli o'yinchilardan raqobatchilarga ham ta'sir qildi.

Logistika sanoati butun dunyo bo'ylab 4 trillion dollardan ortiq daromadga ega bo'lgan ulkan bozor bo'lib, u elektron tijoratdan tortib ishlab chiqarishgacha, yuqori texnologiyalargacha bo'lgan turli biznes tarmoqlarini qamrab oladi. Hozirgi vaqtda logistikani raqamlashtirish sharoitida qator zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Logistikada ishlatiladigan texnologiyalardan biri blockchainlar texnologiyasi (ingliz tili. Blockchain). Blockchain-bu doimiy blok zanjiri bo'lgan axborotni saqlash usuli. Bu tekshirilayotgan usulda bloklar shaklida qayd etilgan tranzaksion hisobotlarni qayd etuvchi tarmoq serverlari tomonidan birgalikda foydalaniladigan umumiy hisob. Ushbu texnologiya "Taqsimlangan ma'lumotlarni

saqlash texnologiyalari" (Distributed Ledger Technology) texnologiyasining bir turi hisoblanadi. Avtomatlashtirish. Ishlab chiqarish va xizmatlarni avtomatlashtirish transport sohasini raqamlashtirishning asosiy yechimlaridan biriga aylanishi kerak. Bunga Gollandiyaning Rotterdam portini misol qilib keltirish mumkin.

Ushbu port "dunyodagi eng ilg'or port" deb nomlanadi, chunki port zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda yetakchi hisoblanadi. To'liq avtomatlashtirilgan port konteyner terminallari yuklarni tushirish uchun kompyuterda dasturlashtirilgan kranlardan foydalanadi, natijada ishlab chiqarish ko'payadi, qayta ishlash hajmi oshadi va mehnat xarajatlari kamayadi. Wall Street Journal ma'lumotlariga ko'ra, avtomatlashtirish Gollandiya portiga umumiy ishlab chiqarishni 30 foizga oshirish imkonini beradi.

Robototexnika. Robotlar, avtomatlashtirilgan mexanizmlardan farqli o'laroq, bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarni bajarishga mo'ljallangan, bu esa ulardan logistika sohasida deyarli cheksiz foydalanish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, onlayn savdoning tez o'sishini qondirish uchun yuqori tezlik va samaradorlikni talab qiladigan elektron tijorat operatsiyalari uchun to'g'ri keladi.

Gadjet texnologiyalari. Gadget texnologiyalari logistika sanoatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Dronlar. Dronlar logistika sohasida ko'plab istiqbolli jihatlariga ega, ayniqsa iste'molchilarga tezkor yetkazib berishning yangi shakllarini muvofiqlashtirish qobiliyati. Dronlar yaqin yillarda aholi zich joylashgan shahar va qishloq joylariga yuklarni yetkazib berishning asosiy vositasiga aylanadi.

Bugungi kunda har bir sohadagi kompaniyalar raqamli texnologiyalarni o'zlashtirmoqda va raqamli transformatsiyaning yangi tendentsiyalari asosida o'z modellarini qayta shakllantirmoqda. Kompaniyalar yangi jarayonlarni taklif qilishda yoki mavjudlarini o'zgartirishda davom etmoqda. Bundan tashqari, yangi kompaniyalar madaniyatini yaratish va hatto iste'molchilar va bozorning o'zgaruvchan ehtiyojlarini, mijozlar talablarini qondirish uchun yangi mijozlar tajribasini joriy etish. Xususan, logistika va transport sohasidagi raqamli o'zgarishlar tarmoq kompaniyalariga yangi texnologiyalardan foydalanishga va tobora kengayib borayotgan bozorda raqobatbardosh bo'lishga yordam beradi.

So'nggi yillarda kompaniyalar logistika va ta'minot zanjirini boshqarish vositalari va texnologiyalarida sezilarli o'zgarishlarga duch kelishdi. Kompaniyalar korporativ axborot tizimlarini keng ko'lamli avtomatlashtirishga o'ta boshladilar va o'zlarining virtual ma'lumotlar bazalarini shakllantirgan holda elektron tijorat platformalari va elektron tijorat xizmatlari ishtirokchilariga aylanishdi.

Transport tarmog'ining boshqaruvidagi yangicha yondashuvlar o'z navbatida mavjud resurslardan oqilona foydalanish asnosida iste'molchilarning talablarini to'liq qondirishga imkon yaratuvchi zamonaviy usul va uslubiylardan foydalanishni taqozo etmoqda.

Mutaxassislarining fikricha mamlakatimizda transport logistikasini rivojlangan mamlakatlar darajasida rivojlanishiga bir qator muammolar to'sqinlik qilmoqda. Mamlakatimiz transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi eng asosiy va dolzarb muammolardan biridir. Jumladan, xalqaro LPI bo'yicha ma'lumotlarga asoslanib mamlakatimizning xalqaro logistika ko'rsatkichlari indeksiga nazar tashlasak, eng past natijalar aynan infratuzilma (2,4 ball) va kuzatuv va nazorat 2,4 ball) indikatorlariga tegishli ekanligini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

2023-yil ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston 2,6 reyting ko'rsatkichi bilan reytingga kiritilgan 140 mamlakat qatorida 88-o'rinni egallamoqda. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha dunyoda Singapur (4,3 - 1-o'rin), Finlandiya (4,2 - 2-o'rin), Daniya, Germaniya, Nederlandiya,

Shveysariya (4,1 - 3-o'rin) mamlakatlari yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Respublikamiz Markaziy Osiyo mamlakatlari Qozog'istondan (2,7 - 79-o'rin) orqada qolayotgan bo'lsa, Tojikiston (2,5 - 97-o'rin) va Qirg'iziston (2,3 - 123-o'rin) dan yuqorida bormoqda (Turkmaniston ro'yxatga kiritilmagan). Rossiya respublikamiz kabi 2,6 reyting ko'rsatkichi bilan 88-o'rinni egallagan. Bu reytingda 1,9 ball ko'rsatkich bilan Afg'oniston va Liviya oxirgi o'rinlarni egallagan.

O'zbekistonning keyingi yillardagi o'rni yaxshilanib bormoqda: 2014-yilda - 129-o'rin; 2016-yilda - 118-o'rin; 2018-yilda - 99-o'rin; 2023-yilda - 88-o'rin (2-jadval). Biroq yetakchi mamlakatlar qatoriga kirishi uchun qaysi jihatlarga e'tibor qaratish zarur? - dyegan savol tug'iladi.

Bu masalaga aniqlik kiritish uchun har bir ko'rsatkich bo'yicha O'zbekistonning o'rniga e'tibor bersak: kuzatuv va nazorat bo'yicha - 105-o'rin (ya'ni reytingga kiritilgan 35 tagina mamlakatdan respublikamizning reytingi yuqori xolos); o'z vaqtida yetkazish - 101-o'rin; logistika sifati va kompetenligi - 92-o'rin; xalqaro tashuvlar - 91-o'rin; infratuzilma bo'yicha - 89-o'rin; bojxona - 74-o'rin. Respublikamizda xalqaro tashuvlar va logistika sifati va kompetenligi ko'rsatkichlari bo'yicha to'plangan ballar yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsada, qolgan ko'rsatkichlar bo'yicha to'plangan ballar notekis o'zgarmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan logistika indeksida O'zbekiston Respublikasining o'rni dunyo mamlakatlari ichida yuqoriga ko'tarilishi uchun birinchi navbatda

kuzatuv va nazorat hamda o'z vaqtida yetkazish tizimi faoliyatiga e'tibor qaratishimiz zarurligi ko'rinadi.

*1-jadval*

2023-yildagi LPI (Logistics Performance Index) ko'rsatkichlari [6] (140 mamlakat orasida)

[illegible]

2012-2023-yillardagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yillarda kuzatuv va nazorat hamda o'z vaqtida yetkazish ko'rsatkichlari bo'yicha respublikamizning reytingdagi o'rne o'zgarmagan bo'lsada, bu ko'rsatkichlar bo'yicha ballari mos ravishda -0,13 va -0,16 ballarga yomonlashgan. Respublikamizning LPI dagi o'rne 29 pog'onaga yaxshilangan bo'lsa, eng yuqori

o'sish bo'xona ko'rsatkichi bo'yicha 44 pog'ona va xalqaro tashuvlar bo'yicha 36 pog'onaga yuqorilashgan. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha to'plangan ballar ham nisbatan yuqori bo'lgan (mos ravishda 0,35 va 0,22 ballga).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, so'nggi yillarda O'zbekiston hududi orqali harakatlanayotgan xalqaro yuk tashuvchilarga yaratilgan sharoitlar va bo'xona xizmati sifatining ortib borayotganligini ta'kidlash mumkin.

O'zbekistonda transport-logistikasining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan eng muhim tashqi omillar qatoriga tashqi iqtisodiy aloqalarni ta'minlaydigan transport infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmaganligi ham kiritilayotganligi, respublikada transport tarmog'ini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

## 2-jadval

**O'zbekistonda logistika samaradorligi indeksi ko'rsatkichlarining o'zgarishi [6]**

| Baholash ko'rsatkichlari              | O'rni<br>Ball | Yillar |      |      |      |      | Yaxshilani<br>sh/Yomonl<br>anish<br>+/- |
|---------------------------------------|---------------|--------|------|------|------|------|-----------------------------------------|
|                                       |               | 2012   | 2014 | 2016 | 2018 | 2023 |                                         |
| Reytingga kiritilgan mamlakatlar soni |               | 155    | 160  | 160  | 160  | 140  | 15                                      |
| LPI dagi o'rni                        | O'rni         | 117    | 129  | 118  | 99   | 88   | 29                                      |
|                                       | Ball          | 2,46   | 2,39 | 2,4  | 2,58 | 2,6  | 0,14                                    |
| Bo'xona                               | O'rni         | 118    | 157  | 114  | 140  | 74   | 44                                      |
|                                       | Ball          | 2,25   | 1,8  | 2,32 | 2,1  | 2,6  | 0,35                                    |
| Infratuzilma                          | O'rni         | 120    | 148  | 91   | 77   | 89   | 31                                      |
|                                       | Ball          | 2,25   | 2,01 | 2,45 | 2,57 | 2,4  | 0,15                                    |
| Xalqaro tashuvlar                     | O'rni         | 127    | 145  | 130  | 120  | 91   | 36                                      |
|                                       | Ball          | 2,38   | 2,23 | 2,36 | 2,42 | 2,6  | 0,22                                    |
|                                       | O'rni         | 117    | 122  | 116  | 88   | 92   | 25                                      |
| Logistika sifati va kompetenligi      | Ball          | 2,39   | 2,37 | 2,39 | 2,59 | 2,6  | 0,21                                    |
| Kuzatuv va nazorat                    | O'rni         | 105    | 77   | 143  | 90   | 105  | -                                       |
|                                       | Ball          | 2,53   | 2,87 | 2,05 | 2,71 | 2,4  | -0,13                                   |
| O'z vaqtida yetkazish                 | O'rni         | 101    | 88   | 114  | 91   | 101  | -                                       |
|                                       | Ball          | 2,96   | 3,08 | 2,83 | 3,09 | 2,8  | -0,16                                   |

Milliy iqtisodiyotni muttasil rivojlantirib borish sohasidagi bosh maqsadga erishish jahon bozorlariga chiqish uchun muqobil (alternativ) transport yo'laklarini rivojlantirish vazifasini hal etish bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ishlab chiqilgan barqaror rivojlanishning milliy strategiyasida jahon bozoriga chiqish uchun muqobil transport yo'laklarini rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. Uning bajarilishi borasida bugungi kunda O'zbekiston o'zi a'zo bir qancha halqaro tashkilotlar doirasida halqaro transport yo'llarini birgalikda qurish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda faol qatnashmoqda.

Bu yo'llar O'zbekiston uchun janubiy dengiz portlariga, mamlakatlararo transport tarmoqlariga (avtomobil temir yo'l, dengiz yo'llariga) tovar va kapitalni jahon bozorlariga chiqish imkonini beradi.

O'zbekiston iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifasini hal etib, jahon bozoriga dadil kirib bordi. O'zining eksport mahsulotlarini ko'paytirib, o'z navbatida xorijiy sarmoyalarni keng ko'lamda jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratdi. Endi mamlakatimiz eksport va import aloqalarini rivojlantirishi uchun o'z iqtisodiyotini barqaror o'stirish jarayonida jahon bozori talablariga javob beradigan tovarlarni qaysi yo'llar bilan xorijiy mamlakatlarga olib borib sotish imkoniyatlarining muqobil yo'nalishlarini to'g'ri tanlashi lozim. Bu masalaning ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham xalqaro jihatlariga alohida e'tibor berish zarur.

Modomiki, O'zbekistonning jahonshumul iqtisodiy jarayonlar tizimiga kirib borishi ob'yektiv zarurat ekan, uning eksport-import aloqalarini eng avvalo kam mablag' sarflab, tezkor xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqalar qilish yo'llarini aniqlash payti keldi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillarga asoslanib, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'rnini aniq belgilab olishning shakllantirilgan konsepsiyasini rivojlantirish, oqilona va izchillik bilan joriy etish zarurati tug'iladi. Buning uchun, bir tomondan, globallashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar va yangi imkoniyatlarni, ikkinchi tomondan, vujudga keladigan xatarlarga qarshi turishning yaqqol ichki imkoniyatlarini va ochilayotgan yangi imkoniyatlarini amalga oshirishning mavjud salohiyatini har tamonlama va xolis baholashni nazarda tutadi.

Mamlakatimizda zamonaviy logistika markazlarini barpo etish va ulardan samarali foydalanish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. O'zbekistonda logistika markazlarini tashkil etish masalasini ko'rib chiqish uchun asos bo'lib respublikada olib borilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash siyosati xizmat qildi. Bu borada ham mahalliy, ham eksport, import va tranzit tovar aylanmasini rivojlantirishga ko'maklashuvchi logistika markazlari tashkil etishni o'z ichiga oluvchi mamlakat transport infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor

qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi bir qator asosiy transport konvensiyalari va xalqaro shartnomalariga qo'shilgan bo'lib, bu borada ham transport koridorlarini diversifikatsiyalash ishlari davom etmoqda.

2030-yilga borib transport sektoriga investisiyalarning umumiy summasi taxminan 46,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilishi, har yillik investisiyalar hajmi esa 2015-yildagi 2,1 mlrd.dollardan 2030-yilga borib 5,1 mlrd. AQSH dollarigacha ortishi ko'zda tutilmoqda. Investisiyalar hajmining ortishi bilan bir paytda iqtisodiy transformatsiyalanishning maqsadlariga erishish uchun O'zbekistonda transport siyosati institusional masalalarni takomillashtirishga, iste'molchiga qaratilgan transport-logistika tizimini yanada optimallashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va xizmatlar turini kengaytirish bilan birgalikda kelgusida yuklarni eksport/import va tranzit qilish uchun transport marshrutlarini diversifikatsiyalashni ta'minlashga yo'naltirish lozim bo'ladi [2].

Logistika samaradorligi indeksida yuqori ko'rsatkichlarga erishish quyidagilarni amalga oshirish orqali ta'minlanishi mumkin:

- me'yoriy va huquqiy bazani, yuklarni tashishning intermodal va multimodal shakllarini, logistika markazlarining texnik va texnologik reglamentini va standartlarini, xalqaro standartlarni qo'llaydigan transport-ekspeditorlik kompaniyalari faoliyatini uyg'unlashtirish;

- multimodal tashishlarning samarali ishlashini ta'minlash uchun axborotlashtirish bazalarini integratsiyalashtirish;

- transport-logistika operatsiyalari darajasini eng kamida 3 PL darajagacha yetkazish bilan milliy transport-logistika markazlari tarmog'ini shakllantirish;

- O'zbekistonning Xalqaro LPI dagi umumiy to'plash mumkin bo'lgan ballarini va barcha ko'rsatkichlar bo'yicha ballarini 2030 yilga qadar quyidagi darajalarga yetkazish: LPI dagi umumiy ballar - 4,19; bojxona - 4,06; infratuzilma - 4,24; xalqaro jo'natmalar - 4,6; logistika xizmatlarining sifati - 3,94; yuklarni kuzatib borish imkoniyat - 4,38; yuklarni o'z vaqtida yetkazib berish imkoniyati - 4,46 [3];

- respublika hududi orqali tranzit yuklarini tashish hajmini 16 million tonnaga yetkazish;
- Janubiy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq, Afrika mintaqasidagi mamlakatlar bilan mavjud aloqalarni yanada kengaytirish, yangi va istiqbolli yo'nalishlarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish, keng mintaqalarni bog'lovchi va O'zbekistonni jahon bozoriga chiqishiga imkon yaratuvchi transport-logistika yo'laklarini shakllantirish [4]; bojxona tartibotlarini yanada takomillashtirish; yo'l (avtomobil, temir yo'l) infratuzilmasini rivojlantirish; xalqaro jo'natmalar xizmatidagi son va sifat ko'rsatkichlarini oshirish; logistika

xizmatlarining sifatini oshirish; yuklarni kuzatib borish va o'z vaqtida yetkazib berish imkoniyatini yaxshilash [5].

Respublika avtomobil transportini rivojlantirish avtomobil tashuvlari sifatini oshirish, avtotransport sektorining atrof muhitga salbiy ta'siri darajasini kamaytirish va ekologiyani yaxshilash, yo'lovchi va yuk avtotransport vositalari saroyini yangilash hamda to'ldirish uchun davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy innovasion g'oyalar, ishlanmalar hamda texnologiyalarni joriy etishni, avtomobil transporti rivojlanishini jadal ilmiy-texnik qo'llab-quvvatlashni, intellektual transport tizimlari tashkil etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Bundan tashqari, avtotransport tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish, jahon transport makoniga integratsiyalashish va respublikaning tranzit salohiyatini amalga oshirish tizimini takomillashtirish, xalqaro avtomobil tashuvlari bozorida mamlakatimiz tashuvchilari raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, kadrlar siyosatini faollashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish zarur.

O'zbekistonda avtomobil transporti tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbolda bajarilishi rejalashtirilgan vazifalarni ro'yobga chiqarilishi transport xizmati sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, natijada respublikamiz transport infratuzilmasi taraqqiy etgan mamalakatlar qatorida o'zining munosib o'rnini egallaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь. <https://pv.uz/uz/newspapers>.
2. Matkarimov Komoliddin Jurabayevich, Transport Logistics: Current Problems, Development Initiatives. The American Journal of Applied Sciences 3 (04), 98-104.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 23 августдаги ПФ-197-сон Фармони “Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига ўзгартиришлар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида”. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.08.2022 й., 06/22/197/0765-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони “Ўзбекистон - 2030” стратегияси тўғрисида. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 19.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 18 майдаги ПҚ-246-сон қарори “Халқаро рейтинг ва индекслар билан ишлашда илмий салоҳият ҳамда амалий фаолият уйғунлигини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.05.2022 й., 07/22/246/0437-сон.

6. <https://lpi.worldbank.org/International>